
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumani hududidan suyultirilgan gaz ta'minoti bo'yicha bildirilgan murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Murojaatda "Qora qushchi" MFY hududiga suyultirilgan gaz ballon o'z vaqtida yetkazib berilmayotganligi yuzasidan e'tiroz bildirilgan bo'lib, mazkur murojaat sababi "Qo'shtepatumangaz" gaz ta'minoti bo'limi mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi.

"Hududgaz Farg'ona" Qo'shtepa tumangaz idorasi suyultirilgan gaz xizmati xodimlari tomonidan "Qora qushchi" MFYga joriy yil 9 fevraldan buyon suyultirilgan gaz tarqatilmoqda. Bugungi kungacha mahallaning Ravnaq, Gulobod, Bog'imaydon, Turon ko'chalari doimgi tartib bo'yicha suyultirilgan gaz bilan ta'minlandi. Bugun, 15 fevral kuni, qo'shimcha avtotransport jalb qilinib, mahallaning Turon ko'chasi to'liq ta'minlanadi. Hamkor ko'chasida ham suyultirilgan gaz ta'minoti amalga oshiriladi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-02-15 10:56:17